



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 8, НОМЕР 2

LOOK TO THE PAST
VOLUME 8, ISSUE 2



ТОШКЕНТ-2025

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуридинович
тарих фанлари доктори, профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Diloram Babajanova O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA BAG‘RIKENGLIKNI TA‘MINLASHGA DOIR DAVLAT SIYOSATI.....	5
2. Ойбек Абдимўминов БМТ ИСЛОҲОТЛАРИ: СИЁСИЙ ҚАРАШЛАР, НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА АМАЛИЙ ТАШАББУСЛАР.....	11
3. Sarvar Axmedov XX ASRNING 60-80 YILLARIDA O‘ZBEKISTONNING ILM-FAN SOHASIDAGI HAMKORLIK ALOQALARI.....	18
4. Nafosat Botirova ANTIK DAVR O‘RTA OSIYO XALQLARI JANG OLIB BORISH USLUBLARI.....	23
5. Дмитрий Епифанов АНАЛИЗ ДЕНЕЖНОЙ И НАЛОГОВОЙ РЕФОРМ БУХАРСКОГО ПРАВИТЕЛЯ АБДУЛЛА-ХАНА II ИХ ВЛИЯНИЕ НА РАЗВИТИЕ ХАНСТВА.....	28
6. Istora Jo‘rayeva O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLARINING IJTIMOIIY-DEMOGRAFIK QIYOFASI.....	31
7. Xamdani Matyakubov TOSH DAVRIDA XO‘JALIK SOHASI, MADANIYAT VA IJTIMOIIY ALOQALAR (XORAZM VOHASI MISOLIDA).....	35
8. Sahodat Murtazova, Otabek Ziyodov O‘ZBEK ESTRADA SAN‘ATINING SHAKLLANISHI VA UNING ATOQLI VAKILLARI FAOLIYATI TARIXIDAN.....	43
9. Sevara Pulatova IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA RASSOMLAR FAOLIYATINI SAFARBAR ETISH JARAYONLARI.....	48
10. Yoqubjon Tayronov TURKISTONDA MAHALLIIY BOYLARNING METSENATLIK FAOLIYATLARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR (Milliy matbuot materiallari asosida).....	53
11. Dildora Tursunova HUNARMANDCHILIK ASOSIDA XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA‘MINLASH.....	59
12. Солижон Қудратов СИРДАРЁ ҲАВЗАЛАРИДА ДАВЛАТЧИЛИК ТИЗИМИНИНГ ПАЙДО БЎЛИШИ.....	63



Istora Baxromjon qizi Jo'rayeva,
Namangan davlat universiteti
O'zbekiston tarixi ixtisosligi tayanch doktoranti.
E-mail: istorajorayeva@gmail.com

O'ZBEKISTON XOTIN-QIZLARINING IJTIMOIIY-DEMOGRAFIK QIYOFASI

For citation: Istora B. Jurayeva. SOCIO-DEMOGRAPHIC IMAGE OF WOMEN IN UZBEKISTAN. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 2, pp.31-34

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14978644>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston aholisining salmoqli qismini tashkil etgan xotin-qizlarning ijtimoiy demografik holati haqida so'z yuritilgan va Farg'ona vodiysi viloyatlari misolida tahlil etilgan. Ushbu tahlil ma'lumotlari sohalar rivoji uchun tizimli yondashuvlar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Shuningdek, davlat siyosatining eng muhim masalalaridan biri bo'lgan aholi farovonligini oshirish, turmush darajasini ko'tarish, yangi ish o'rinlarini tashkil etishda xotin-qizlarning demografik holatini o'rganish naqadar ahamiyatli ekanligi ochib berilgan hamda O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri ko'rsatib berilgan.

Истора Бахромджон кызы Жураева,
Наманганский государственный университет
Докторант по специальности «История Узбекистана».
Электронная почта: istorajorayeva@gmail.com

СОЦИАЛЬНО-ДЕМОГРАФИЧЕСКИЙ ОБРАЗ ЖЕНЩИН УЗБЕКИСТАНА

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается социально-демографическое положение женщин, составляющих значительную часть населения Узбекистана, и проводится его анализ на примере регионов Ферганской долины. Данные этого анализа послужат для разработки системных подходов к развитию сети. Также изучение демографического положения женщин раскрывает его значение в улучшении благосостояния населения, повышении уровня жизни, создании новых рабочих мест, что является одним из важнейших вопросов государственной политики, и показывает его влияние на экономику Узбекистана.

Istora B. Jurayeva,
Namangan State University
PhD student in the field of History of Uzbekistan.
E-mail: istorajorayeva@gmail.com

SOCIO-DEMOGRAPHIC IMAGE OF WOMEN IN UZBEKISTAN**ABSTRACT**

This article discusses the socio-demographic situation of women, who constitute a significant part of the population of Uzbekistan, and analyzes it using the example of the Fergana Valley regions. The data from this analysis will serve to develop systematic approaches to the development of industries. It also reveals the importance of studying the demographic situation of women in improving the well-being of the population, raising living standards, and creating new jobs, which are among the most important issues of state policy, and shows its impact on the economy of Uzbekistan.

1. Dolzarbligi:

Bugungi shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda resurslar masalasi asosiy e'tibor markaziga aylandi. O'zbekistondagi demografik jarayonlarning o'ziga xos jihatlaridan biri, mehnat resurslaridan samarali foydalanish barqaror rivojlanishga ta'sir ko'rsatadi. Dunyoning ko'plab davlatlarida ro'y berayotgan demografik portlashlar kabi O'zbekiston aholisi ham tez suratlarda o'sib bormoqda. Ayni shu boisdan ham, aholining yosh va jinsiy tarkibini tahlil etib borish mamlakat hayotida har qachongidan ham dolzarb o'rin tutmoqda. Demografik, ya'ni aholi o'sishining o'ziga xos mosligi mamlakatimizning regional xususiyati bo'lib, aholini va mehnat resurslarining jadallik bilan ortib borayotganini ko'rsatadi. Mamlakatimiz aholisining qariyb yarmi xotin-qizlar tashkil etadi. Ularning manfaatlarini ta'minlash, jamiyat hayotidagi o'rnini mustahkamlash davlatimiz ijtimoiy siyosatining muhim yo'nalishidir[1]. Ushbu tizim natijalari va istiqboli demografik tahlillarda o'z aksini topadi. Demografik ko'rsatkichlar mehnat yoshidagi aholining salmoqli qismini xotin-qizlar tashkil etishi bilan yanada e'tiborlidir. Dunyoning ko'plab davlatlarida aholining barcha qatlamlarini demografik jihatdan tahlil etib borish iqtisodiy barqarorlikni saqlab qolishning asosiy omili sanaladi. Jumladan, xotin-qizlar salmog'i iqtisodiy istiqbollarni belgilashdagi muhim shartlardan biridir[2]. Shuningdek, iqtisodiy ishtirokning aniq ko'rsatkichlari tizimli tahlillarga sabab bo'ladi[3].

2. Metodlar:

O'zbekiston xotin-qizlarining ijtimoiy-iqtisodiy demografik holati aniq ma'lumotlarga tayangan holda, tarixiylik, izchillik, uzviylik, xolislik va shu bilan birga davriy ketma-ketlikda viloyatlar kesimida qisqisoy tahlil metodlaridan foydalanish orqali tadqiq etildi.

3. Tadqiqod natijalari:

O'zbekiston Respublikasining Farg'ona vodiysi viloyatlari demografik holati bo'yicha alohida ahamiyatga ega. Vodiy viloyatlari O'zbekiston aholisining eng ko'p qismi joylashgan hududlaridan hisoblanib, 57 foiz aholisi shaharlarda, 43 foiz aholisi esa qishloqlarda istiqomat qiladi[4]. O'zbekistondagi jami mehnatga layoqatli aholining 28 foizi Farg'ona vodiysi viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi[5]. O'zbekiston aholisi soni yildan-yilga barqaror o'sib bormoqda. 2011-yilda aholining umumiy soni 29 mln. 123 ming kishi bo'lib, shundan ayollar 14 mln. 555 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2021-yilga kelib 34 mln. 558,9 kishidan iborat aholi sonining 17 mln. 180 ming nafari ayollardan iborat bo'lgan.

O'zbekiston xotin-qizlarining demografik holatini demografik prognozlashtirish asosida aholining istiqboldagi tarkibi va miqdoriga ta'sirini qiyoslash orqali aholi o'zgarishining u yoki bu komponentlari rolini baholash imkonini beradi[6]. 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, Farg'ona viloyatining doimiy aholisi jinsi va yosh guruhlari bo'yicha (65 yoshgacha bo'lganlar 5 yillik intervalda, 65 yosh va undan kattalar esa umumlashtirilgan holda) tahlil qilinganda, erkaklar orasida eng ko'p aholi soni 4 yoshgacha bo'lgan bolalar guruhiga to'g'ri kelib, ularning soni 236,7 ming kishini tashkil qilgan. Eng kam erkaklar soni esa 60-64 yosh toifasiga tegishli bo'lib, bu ko'rsatkich 76,3 ming kishiga teng bo'lgan[7]. Ayollar tarkibida ham eng yuqori ko'rsatkich 4 yoshgacha bo'lgan qizlarga tegishli bo'lib, ularning soni 220,6 ming kishini tashkil etgan. Eng kam ayollar soni esa 60-64 yosh guruhiga to'g'ri kelib, 83,1 ming kishiga yetgan.

2023-yil 1-iyul holatiga ko'ra, Farg'ona viloyatida har kvadrat kilometrda o'rtacha 594,0 kishi to'g'ri kelgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 12,0 kishiga oshgan (2022-yilda 1 kv.km.ga 581,6 kishi to'g'ri kelgan). Hududlar kesimida eng yuqori aholi zichligi Marg'ilon shahrida qayd etilgan bo'lib, bu yerda har kvadrat kilometrda 6068,8 kishi to'g'ri kelgan. Keyingi o'rinlarda Farg'ona shahri (2139,9 kishi), Uchko'prik tumani (1024,4 kishi), Qo'qon shahri (1001,5 kishi) va Toshloq tumani (890,3 kishi) joylashgan. Eng past aholi zichligi esa Yozyovon tumanida (290,7 kishi), Beshariq tumanida (310,1 kishi), Oltiariq tumanida (357,9 kishi), So'x tumanida (373,6 kishi) va Farg'ona tumanida (388,1 kishi) qayd etilgan.

2011-yilda O'zbekiston aholisining 50 foizini tashkil etgan xotin-qizlarning 9 foizi Andijon viloyati, 8 foizi Namangan viloyati, 11 foizi esa Farg'ona viloyati xotin-qizlari hissasiga to'g'ri kelgan[8].

2011-yilda O'zbekiston aholisining umumiy soniga nisbatan xotin-qizlar ulushi 50 foizga yetgan, 2016-yilda esa 49,8 foiz, 2021-yilga kelib 49,7 foizni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichlar so'ngi yillarda umumiy aholi sonida xotin-qizlarning ulushi qisman kamayganini ko'rsatadi. Ultratovush tekshiruvlarining rivojlanishi va aniqligining ortib borishi natijasida, jinsga qarab farzand dunyoga keltirish, qiz farzandning tug'ulishidan voz kechish holatlari oshib bormoqda. Xotin-qizlar demografiyasi haqida so'z ketar ekan, bunda o'zbek oilalaridagi o'ziga xos qarashlar ham muhim o'rin egallaydi. Sotsiolog Zavqiddin Gadoyevning ta'kidlashicha, oilalarda ko'proq o'g'il farzand xohlash, qiz tug'ilsa ham, "ortidan o'g'il farzandlar tu'gilsin", deya niyat qilish – o'zbek oilalariga xos odat[9]. O'zbek oilalarida o'g'il bolaning afzal ko'rilishi qiz farzandlar sonining kamayishiga, bu esa o'z navbatida xotin-qizlarning umumiy ulushiga ta'sir ko'rsatadi. Xotin-qizlar demografik holati aholi demografiyasining bir qismi sifatida davlat rivojlanishining muhim omili sanaladi. Demografik o'zgarishlar va mehnat resurslari taqsimoti o'rtasidagi uzviy bog'liqlik iqtisodiy rivojlanish jarayonida asosiy o'rin tutadi[10]. Zero, har qanday davlat va jamiyatning barqaror taraqqiyoti aholining soni, jinsiy tarkibi, yoshi, tug'ulish va o'lim miqdori va boshqa muhim demografik ko'rsatkichlarga bog'liqdir.

4. Xulosalar:

Xotin-qizlar demografiyasi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan muhim omillardan biridir. Quyidagi jihatlar bunga yaqqol misol bo'la oladi:

Iqtisodiy taraqqiyot – Ayollarning mehnat bozoridagi faolligi, tadbirkorlik bilan shug'ullanishi va bilim darajasi mamlakat iqtisodiyotining o'sishiga ijobiy ta'sir qiladi. Gender tengligi esa iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya – Ayollar demografik holatini o'rganish ularning salomatligi, tug'ilish darajasi, umr ko'rish davomiyligi va ijtimoiy himoya tizimi bilan bog'liq muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim va kasbiy rivojlanish – Ayollarning sifatli ta'lim olishi jamiyatning ilmiy-intellektual salohiyatini oshiradi hamda kelajak avlodning puxta tarbiya topishiga xizmat qiladi.

Oilaviy va demografik barqarorlik – Xotin-qizlar oilaviy munosabatlar va farzand tarbiyasida asosiy o'rin tutadi. Shu sababli, demografik tahlillar tug'ilish ko'rsatkichi va oila rejalashtirish siyosatini shakllantirish uchun muhimdir.

Siyosiy va huquqiy ishtirok – Ayollarning siyosiy hayotdagi faolligi, davlat boshqaruvida va qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirok etishi demokratik taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, xotin-qizlar demografiyasiga e'tibor qaratish jamiyatning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladigan asosiy omillardan biridir.

Iqtiboslar/ Сноски/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning xotin-qizlar muammolarini hal qilish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishidagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/4186>

2. Kitao, S., & Mikoshiba, M. (2020). Females, the elderly, and also males: Demographic aging and macroeconomy in Japan. *Journal of the Japanese and International Economies*, 56, 101064. <https://doi.org/10.1016/j.jjie.2020.101064>
3. Abe, Y. (2017). Effects of demographic compositional changes on the convergence of female participation rates. *Journal of the Japanese and International Economies*, 48, 97–104. <https://doi.org/10.1016/j.jjie.2017.12.001>
4. Mirzaxalov S.J. O'zbekiston Respublikasida yoshlar tadbirkorligining muammo va yechimlari (Farg'ona vodiysi viloyatlari misolida 1991-2021 yillar) Falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Farg'ona, 2023. -12 b.;
5. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya. Noshir. – Toshkent. 2011. 10-b.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari: mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soni. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2> murojaat qilingan sana: 20.12.2024
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Farg'ona viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari. <https://farstat.uz/uploads/press23/DM-PR-06-2023.pdf>
8. Ayollar va erkaklar statistik to'plami. O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi. . – T., 2018. 59-b.
9. <https://m.kun.uz/news/2023/01/15/ozbekistonda-erkaklar-soni-ayollarga-nisbatan-oshib-bormoqda-bu-nimani-anglatadi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F01%2F15%2Fozbekistonda-erkaklar-soni-ayollarga-nisbatan-oshib-bormoqda-bu-nimani-anglatadi> Murojaat qilingan sana: 18.01.2025.
10. Abdullajonov D.Sh. Demografik o'zgarishlar va mehnat resurslari taqsimoti.//Qo'qon universiteti xabarnomasi. 2024.№12.- 65-b.

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 2

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 2

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000